

O`zbekiston Respublikasi
Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligi
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi
Andijon davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiyot fakelteti
Pedagogika psixologiya ta'lim yo'nalishi
III bosqich talabasi Isroilov Donyorbekning
“Umumiy psixologiya” fanidan

KURS ISHI

Andijon – 2016 yil

Mavzu : Shaxslararo munosabatlar psixodiagnostikasi

Reja:

Kirish: Psixologik diagnoz haqida tushuncha.

Asosiy qism:

- 1. Psixodiagnostik tadqiqotlarning vazifalari va xususiyatlari**
- 2. Psixodiagnostik metodlar va diagnostik yondashish**
- 3. Psixologik tashxisda Reykovskining nazariy chizmasi va uning shaxs faliyatiga ta'siri**
- 4. Shaxs psixodiagnostikasi**

Xulosa

Psixologik diagnostika haqida tushuncha.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” sifat bosqichini amalga oshirilishiga pedagoglar va psixologlar o‘z bilimlari, malakalari bilan hissalarini qo‘shishlari maqsadga muvofiqdir. Milliy dasturda ko‘zda tutilgan bosh maqsadlardan biri, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, jahon standartlariga mos keladigan raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Milliy g‘oyamizni yoshlar ongiga singdirish biz kattalarning burchimizdir. Buning uchun ularni komil inson qilib tarbiyalashimiz zarur. Komil inson shundayki, unda to‘rtta xususiyat, ya‘ni yaxshi so‘z, yaxshi fe‘l, yaxshi ahloq, maorif va madaniyat kamolga yetishi lozim.

Prezidentimizning **“Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, dono, bilimli va albatta baxtli bo‘lishlari shart”** deb ta’kidlaganlari bejiz emas. Yurtimizning rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarilishi biz ta’lim-tarbiya berayotgan yoshlarimizning dunyoqarashi, salohiyati, iqtidori hamda mustaqil fikrlashlariga bog‘liq.

Prezidentimiz I.A.Karimov o‘z nutqlarida ma’naviyatimizni tiklash, yanada yuksaltirish, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga ko‘tarishga da’vat qiladilar.

Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri – o‘quvchilar shaxsini, shaxsiy fazilatlarini, qiziqishlari va xulq-atvorini puxta o‘rgangan holda ularga pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bugungi kunda bu borada ta’lim-tarbiya muassasalarining psixologlari va tarbiyachilariga dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada psixolog-inspektorlarning faoliyatini tashkil qilish usullari, ijtimoiy-psixologik xizmatning maqsad va vazifasi, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning psixologik qonuniyatlari, mexanizmlari, pedagoglar jamoalarida psixologik muhitni yaxshilash usullari, psixolog xonasini jihozlashga

doir ko'rsatmalar va ko'rgazmali qurollardan namunalar, psixologlarning 6 ta yo'nalish bo'yicha olib boradigan yillik ish rejalari, psixolog kasb etikasi, me'yoriy hujjatlar nomenklaturasi, o'quvchilar psixologiyasini o'rganishda psixologlar oldida turgan muammolar kabi masalalar haqida ko'rsatmalar keltirilgan.

Shuningdek, o'quvchilarda o'tkaziladigan psixologik testlar va metodikalardan namunalar keltirilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tashkil etilgan **ijtimoiy-psixologik xizmatning maqsadi** – o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, yangi ijtimoiy-kasbiy muhitga moslashuvini o'rganish, psixologik-pedagogik, kasbiy-tashxis qilish hamda shaxs sifatida har tomonlama kamol topishi, ma'naviy-aqliy rivojlanishi, o'zligini anglash va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish uchun o'quvchi shaxsini har tomonlama chuqur o'rganish zarur. Buning uchun amaliyotchi psixologlar va o'qituvchilar psixologik qonuniyatlarni bilishi hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda to'g'ri foydalana olishi lozim.

Kollej va akademik litsey psixologining olib boradigan ishlarini asosan 2 qismga bo'lish mumkin:

1. Katta yoshdagilar bilan olib boradigan ishlari pedagoglar, ota – onalar bilan bog'liq ishlar.
2. O'quvchi yoshlar bilan, ularning rivojlanish xususiyatlariga o'zgartishlar kiritish bilan bog'liq ishlar.

Pedagoglar bilan olib boriladigan ishlar tarkibi quyidagilardan iborat:

Kollej va akademik litsey psixologining katta yoshdagilar bilan olib boradigan ishlari markazida maktabda ishlaydigan o'qituvchi - murabbiylarni tanlash, ilmiy asoslangan maslahatlar bera olish, faoliyatning eng maqbul usullarini o'z jamoasida joriy qilish, pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni

uyushtirish singari ishlarda maktab ma'muriyatiga yaqindan yordam berishdir.

Kollej va akademik litsey psixologining ikkinchi turkum ishlari, ya'ni o'quvchi yoshlar bilan, ularning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va unga o'zgartishlar kiritish sohasidagi ishlarda ta'lim muassasasi uchun o'kuvchilar qabul qilish ishlarida faol ishtirok etish, iste'dodli bolalarni tanlab olish, ularni guruhlar tarzida komplektlash, ta'lim muassasasini tamomlab chiqayotgan o'quvchilar layoqatini aniqlash, qaysi sohalar uchun ko'proq moyilligini, yaroqliligini aniqlash va tegishli tavsiyanomalar berishdan iboratdir.

Psixodiagnostika so'zi – yunoncha so'zdan olingan bo'lib, diagnoz bilishga qodir, psuxo – «Ruh», «jon» degan ma'noni, anglatadi. Ya'ni shaxsning individual psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o'lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli -demakdir.

Psixodiagnostika – psixologik fan sohasi bo'lganligi bois, u yoki bu darajadagi psixologiya tarmoqlari bilan o'zaro bog'liq. Ma'lum ma'noda, o'z mustaqilligiga qaramay, psixodiagnostika umumpsixologik nazariyaning rivojlanishiga ham bog'liqdir. Biroq tadqiqotlarning shunday yo'nalishlari mavjudki, ular bilan psixodiagnostika ko'proq aloqada bo'ladi. Xorij va mahalliy adabiyotlarda bu tushunchaning boshqalarga nisbatan o'xshashligi mavjud bo'lganligi sababli, aynan shu muammo to'g'risida ushbu mavzuda fikr yuritiladi.

Psixodiagnostik tadqiqotlarning vazifalari va xususiyatlari

Zamonaviy psixologiyada psixodiagnostikaga “fan va tajriba o‘rtasidagi ko‘prik” misol tariqasida qaraladi. Xozirda, psixologik nazariyadan ajratilgan psixodiagnostika inqirozga yuz tutadi deyish noto‘g‘ri, albatta. Bunga psixodiagnostikaning kelib chiqish tarixi yorqin tasdiq bo‘la oladi. Ma’lumki, tashxisning muvaffaqiyati (o‘lchov va baxosi), avvalambor, xodisalarni o‘lchash nazariyasini ishlab chiqish darajasi orqali aniqlanadi. Bu xolat aqliy qobiliyat (intellekt)ni o‘lchash jarayonida yaqqol ifodasini topgan. Shu bois, samarador testlarning paydo bo‘lishida nazariy tasavvurning o‘rnini almashtirish extiyoji tug‘iladi.

Psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillari

Albatta, har bir fan sohasi o‘ziga xos ob’ektga va predmetga hamda ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy metodlariga, o‘z tamoyillariga egadir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, psixologik-pedagogik diagnostikaning asosiy tamoyillarini ko‘rsatib o‘tamiz:

Diagnostika nazariyasi va metodikalarining ilmiy asoslanganligi

Diagnostika ob’ektini yaxlit ravishda genetik va tizimli taxlil qilish, ularni modellashtirish, qo‘llaniladigan metodikalar, ko‘rsatkichlarning ilmiy asoslanganligi, olingan natijalar va ularning interpretatsiyasining ishonchliligi, aniqligi, validligini puxta ishlab chiqilgan metodik asoslarda ta’minlash. Ilmiy asoslanganlik tamoyili qo‘llanilayotgan metodikalarning etnik, ijtimoiy muxitga, shu jumladan diagnostika o‘tkazilayotgan o‘quv yurti, o‘quv guruhi va auditoriyaga mosligini talab qiladi. bu tamoyilga amal qilish pedagogik-diagnostikalarni turli xil yengil, “ko‘ziga yaxshi ko‘ringan” yoki “qo‘liga tushib qolgan” metodikalarni bilib-bilmay qo‘llashdan saqlaydi.

Diagnostikaning izchilligi va aniq yo‘nalganligi

Psixologik-pedagogik diagnostika boshqa psixodiagnostik va pedagogik diagnostikadan farqli ravishda aniq yo‘nalishga, aniq ob’ektga va

maqsadga qaratilgan. Shu sababli diagnostika faoliyati (jarayonining) natijalari umumiy xulosalar, abstrakt muloxazalardan emas, balki aniq shaxsga (masalan, talaba), aniq guruhga tegishli bo'lishi, diagnostika natijasida aniq xulosa chiqarib, kamchiliklarni bartaraf qilish, yordam berishning aniq yo'llarini ko'rsatib berishi lozim.

Diagnostika shakl va metodlarining optimalligi

Qo'llanilayotgan metodikalar, talabaga yondashish usullarining amaliyotchi psixolog, pedagog yoki psixodiagnostga kam kuch va vaqt sarflab, talaba haqida muhim, sifatli, katta amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlar yig'ishga imkon berishidir. Diagnostikaning shakl va metodlarining optimalligini ta'minlash uchun psixodiagnostikada ko'p yillar davomida qo'llanilib kelayotgan, qulay, oddiy va shu bilan birga samarali metodlarini tanlash hamda qo'llash zarur.

O'rganish ob'ekti haqida faktlarni yig'ish, bayon qilish va to'g'ri yo'lga solishning birligi

O'rganilayotgan ob'ekt haqida ma'lumotlar yig'ish, ularni pedagoglarga ko'rsatish va diagnostika jarayonida o'rganilayotgan talabaga yoki ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishda, kamchiliklarni bartaraf qilishda o'quv yurti rahbarlariga, pedagoglarga ma'lum psixologik-pedagogik yordamlar berish, to'g'ri yo'lga solish, qo'llab-quvvatlash vazifalarning birgalikda olib borilishidir.

Diagnostikaning ketma-ketligi va uzluksizligi

Diagnostikaning bosqichma-bosqich amalga oshira borish, o'quv jarayoniga, talabaning o'zlashtirishiga xalaqit berayotgan sabablarni ochish, olingan natijalardan keyingi bosqichlarda, ta'lim-tarbiya jarayonida uzluksiz foydalanishda yuzaga chiqadi. Diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi va ommabopligi Diagnostika metodlarining oddiyligi, amaliy psixologlar, pedagoglar, o'quv yurti rahbarlari, tekshiriluvchi uchun

qulayligi, ularda diagnostikaga nisbatan qiziqish, intilish uygʻotishga xizmat qilishini taʼminlovchi tamoyildir.

Diagnostikaning har tomonligiga (kompleksliligi)

Bu tamoyil talaba shaxsini, uning individual-psixologik xususiyatlarini, psixik jarayonlarining rivojlanganlik darajasini, oʻquv faoliyatining boshqa xususiyatlarini oʻrganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar talabani bir butun xolda, har tomonlama oʻrganish, taʼriflash, yondashish imkonini berishda yuzaga chiqadi. diagnostik metodikalar bir-biri bilan bogʻliq boʻlishi, bir-birini toʻldirishi bu tamoyilning asosiy talablaridan biridir.

Diagnostikaning talaba rivojlanishining kelajagini, oqibatlarini oldindan koʻra olish (bashorat qilish) imkonini bera olishi


Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika talabaning kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, oʻquv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini koʻrsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. diagnostik jarayonda oʻrganilayotgan obʼektning “kelajagi”, ertangi kuni, taraqqiyot anʼanalari maʼlum omillar taʼsirining oqibatlarida ochib berilishi kerak. Shu xoldagini, bashorat moxiyatidan kelib chiqqan xolda taʼlim-tarbiya jarayonida yoʻl qoʻyilayotgan xatolar, talaba taraqqiyotidagi koʻzga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, toʻgʻri yoʻlga solish imkoniga ega boʻlamiz. shu sababli psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik boʻlishi eng muhim talablardan biridir.

Psixodiagnostik metodlar va diagnostik yondashish

Psixologik tashxis (diagnoz)ning rivojlanishi maxsus tadqiqot uslubi – diagnostik uslubning paydo bo‘lishiga keltiradi. Bu uslub psixologiyaning boshqa uslublar sistemasida qanday o‘rinni egallaydi, uning o‘ziga xosligi nimada?

Psixologik adabiyotlarda ko‘pincha “metod” va “metodika” tushunchalarini turli mazmunda uchratamiz. Biz psixologiyaning ma’lum uslubiy tamoyillar o‘zining birlamchi konkret tadqiqot uslubidan olishini bilamiz. Tadqiqot uslubining eksperimental va noeksperimental (tavsiflash) uslubga bo‘linishi hamma yerda tasdiqlangan. Noeksperimental uslub metodikaning har xil turdagi kuzatish, suxbatlar, faoliyat maxsullarini o‘rganishni xosil qiladi. Tadbiqiy metod (qo‘llanma) yo‘naltirilgan shart-sharoit yaratishga asoslangan. Bu shart-sharoitlar o‘rganilayotgan omil (o‘zgaruvchi)ni ajratib olishni ta’minlaydilar va uning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni qayd qiladi. Bundan tashqari tadqiqotchining sinalayotgan shaxsning faoliyatiga aralashish imkoniyatiga yo‘l qo‘yadi. Shu metod asosida psixologiya uchun ko‘p sonli va odatiy laborator va tabiiy eksperiment metodikasi hamda yana ularning maxsus xilma-xil turlari – shakllangan eksperimenti (tajriba) yaratiladi. Diagnostik testlar ayrim xollardagina eksperimental metod chegarasida qaraladi. Biz mutlaq aniq xususiyatli va ko‘pgina konkret metodikalarni umumlashtiruvchi psixodiagnostik metodni ajratish kerak deb xisoblaymiz. Psixodiagnostik metodning asosiy xususiyatidan biri uning o‘lchash–sinash, baxolovchi yo‘nalishi xisoblanadi. Bu yo‘nalish yordamida o‘rganilayotgan xodisaning miqdor va sifat kvalifikatsiyasiga erishiladi. Eng muhim talablardan biri – o‘lchagich asbobning standart bo‘lishi (uning asosida norma tushunchasi yotadi). Har qanday diagnostik metodika (test) ishonchli, mustaxkam talablarga mos kelishi kerak. Tadqiqot jarayoniga ham bir qator qat’iy talablar ko‘rsatiladi (aniq instruksiya rioya qilish vaqtdan chegaralanish va eksperimentchining

aralashuvini cheklash va boshqalar). Bunga qo‘shimcha qilib shuni aytishimiz mumkin-ki, psixodiagnostik metodning taxlili (taxlili) o‘ziga xos sabablarni ajrata oladi. Bu sabablar sub’ektning faolligini, uning xolatidagi ayrim strategiyani aniqlaydi. Diagnostik metodni harakterlayotganda, uning o‘lchash–sinash yo‘nalishining ko‘rsatgichi bilan chegaralanib qolish yetarli emas. Aks xolda tushuntirish g‘olibligi eksperiment metodga beriladi. Xaqiqatdan esa diagnostik tadqiqot o‘ziga tushuntirish elementlari, sabablarni ochish, nixoyat talablarga mos kelgan tavsiyalarni ishlab chiqishni o‘ziga kiritishi kerak.



1-rasm. Psixologiyani anglash vositalarining ierarxik zinası

Yuqorida aytilgan ierarxik zina ko‘rinishida jamlashimiz mumkin .

Test o‘tkazish – psixologik harakteristikani o‘lchash demakdir. Psixologik baxo berish uzoq tarixiy davrga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Xitoyda chinovniklarni tanlab olish tizimiga asoslangan. Ma’lumotlarga qaraganda psixologik baxo – psixologik testlashga qaraganda kengroq tushunchadir. Baxolash faqatgina test orqali o‘tkazilmaydi. Ayni paytda psixologik baxolash va boshqarish mazmuni taxlil qilinadigan bo‘lsa, ko‘p xolda testlashning sinonimi sifatida e’tirof etilib, psixologik o‘lchovning hamma spektrlarini o‘z ichiga qamrab olmoqda. Natijada, testlar (standartlashgan muolajalar)dan tashqari tashxis etish jarayoni rivojlandi. Bu esa psixologik baxo tushunchasining psixodiagnostika predmetiga yaqinligi zaruratini keltirib chiqardi. Amaliyotda shaxsni o‘rganish uchun turli xil psixodiagnostik testlar o‘tkazish “psixologik tashxis” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. “Tashxis” (aniqlash, diagnoz) tushunchasi ilm–fan va texnikani turli xil yo‘nalishlarida keng qo‘llaniladi, tiriklikni aniqlash va u yoki bu o‘zgarishlarini o‘ziga xosligini o‘rganish - tibbiyotni boshlanishi xisoblanmaydi. Adabiyotlarda “psixologik tashxis” haqida aniq tushunchalar kam emas. Tibbiyotda qo‘llaniladigan tashxis tushunchasi, normal xolatni o‘zgarishini aniqlashdir. Ushbu tushunchani yoritish psixodiagnostika fanida ham rivojlangan bo‘lib, unga ko‘ra psixologik tashxis bu – doimo paydo bo‘lgan noxushlikni yashirin sababini aniqlashdir. “Tashxis qaysi sohada qo‘yilishidan qat’iy nazar – tibbiyotdami, taxnikadami, boshqarmadami, psixologiyadami – bu har doim paydo bo‘lgan noxushlikni yashirin sababini qidirish xisoblanadi”. Shuningdek, ayrim chet el psixologlari psixodiagnostikada, qandaydir buzilishlar “nomidan” tashqari “tashxis” terminini qo‘llashlariga ham to‘g‘ri kelgan.

Psixologik tashxisda Reykovskining nazariy chizmasi va uning shaxs faliyatiga ta'siri

Bugungi kunda psixologik tashxisni anchagina qayta ishlangan nazariy chizmalaridan biri bo'lib taniqli polyak psixologi Yanush Reykovskiy (Reykovski), tomonidan taklif qilingan nazariya xisoblanadi. U psixodiagnostikaning ishlash jarayonida to'rt asosiy yo'nalishni ajratadi.

Tashxisni o'tkazishda tekshiriluvchini faoliyatini, axloqini ta'riflash, taxlil qilish va axloqini o'ziga xosligini tavsiflash.

Tashxisni o'tkazishda faoliyatni boshqarilishi - jarayonlarni yoki psixologik jarayonlarni o'rganish;

Tashxisni o'tkazishda boshqaruv mexanizmi - psixik jarayonlar mexanizmini o'rganish, nerv tizimi bog'lanishlarini diagnostikasi.

Individ psixikasi qanday sharoitda shakllanganligiga javob berish yoki boshqaruv mexanizmi genezi diagnostikasi.

To'liq nazar tashlash psixologik tashxis qamrovini noto'g'ri o'lchamda kamayishiga olib keladi, undan individual-psixologik normal farqni aniqlash va xisobga olishga bog'liq bo'lgan hamma narsa tushib qoladi. Psixologik diagnostikada anchagina keng bo'lgan tarixiy to'plangan izlanishlar maydoni xoxish bilan ajralib chiqqan bo'lib, unga ko'ra psixologik tashxis maydoni normal va patologik xolatda ham individual-psixologik farq bo'lib xisoblanadi.

Ma'lumki, diagnostik metodikalarning ma'lum bir qismi klinika ta'lablariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shuning uchun zamonaviy psixodiagnostikada klinik-psixologik diagnostika haqida tushuncha eng ko'p o'rganilgan. Turli xil izlanuvchilarning qarashlarini - A.Levitskiy klinik-psixologik diagnostikani asosiy vazifasiga - tekshiriluvchining kasbidagi, oilaviy hayotidagi, insonlar bilan muloqotidagi va tekshirishlar davomida aniqlangan axloqini buzilishini ko'rsatib o'tish, ya'ni motivatsiya va bilish jarayonlari

asosida yotuvchi psixik disfunktsiyani; ma'lum bo'lgan buzilishlar genezidagi psixologik mexanizmlar ahamiyati, ya'ni vaziyatli yoki shaxsiy omillar buzilishiga asoslangan; shaxs buzilishlari qaysi xolatlarda organik omillar bilan, qaysi xolatlarda psixologik omillar bilan determinatsiyalashganligini aniqlashlarni umumlashtirgan.

G'arb adabiyotlarida bir necha bor klinik-psixologik tashxis axloq buzilishlarini aniqlash bilan chegaralanishi kerakmi (ya'ni, u yoki bu sababli buzilgan psixik faoliyatni aynan o'sha bo'lagini o'rganish) yoki shaxsning bir butunligini tasavvur qilgan xolda undagi vaqtincha (turg'un) disfunktsiya elementlarini ajratish kerakmi, degan xolda muxokama qilinadi. Ko'pgina mashhur klinik psixologlar porsial diagnostikani ta'kidlab bunda shaxsni bir butunligicha o'rganishda aloxida psixik funksiyalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib o'tishadi. Zamonaviy psixologik izlanishlar xolatiga to'g'ri kelmagan nuqtai nazar noto'g'ri deb xisoblanadi. Xozirgi kunda amalga oshirish mumkin bo'lgan klinik-psixologik diagnostikadagi shaxsiy yondoshishni kiritish ko'pgina xatolarni oldini olishga imkon beradi. Faqat shuning asosidagina reabilitatsiyasi va psixoterapevtik ishlarga oldindan baxo berish va ular uchun samara tavsiyalar ishlab chiqarishga imkon yaratadi.

Klinik va psixologik tashxis bir-biri bilan raqobat qilishi mumkin emas. A.Livitskiy (1969) vrach va psixologning hamkorligini zaruriyatini ta'kidlagan xolda psixologik tashxis klinik tashxisga asoslanishi kerakligini ta'kidlagan. Klinik tashxis orqali psixolog u yoki bu buzilishlar to'g'risida ma'lumot topishi, bu esa "psixologik yo'l" orqali axloqni buzilishini aks ettirish demakdir. O'z navbatida shifokor psixolog tomonidan olingan ma'lumotlarni xisobga olish kerak. Bu yetarli tipik darajada to'g'ridan-to'g'ri nerv va endokrin tizim xususiyatlari, konstansiya, shaxs xususiyatlari temperamentni tibbiy fikrlashga o'tishga imkon yaratadi. Bosh miyaning organik zararlanish, topilgan epilepiyalı bemorda (klinik tashxis) ko'pincha

shaxsini o'zgarishi natijadsida bo'ladi. Bu esa quyidagicha ko'rinish beradi, bemor og'ir ijtimoiy xolatda bo'ladi, kasallik namoyon bo'lishida, insonlar bilan aloqasi buziladi va boshqa omillar orqali "epileptik shaxs" deb nomlangan xolat chiziqlari aniqlanadi.

Shaxs psixodiagnostikasi

Faylasuflar qadim zamonlardan buyon shaxs xulq-atvorining u yoki bu shakllari qonuniyatlarini aniqlashga, nima sababdan bir kishi bilan umumiy til topishi oson-u, boshqa kishi bilan umumiy til topishning xech qanday iloji yo‘qligini, ayrim kishining xulq-atvori mantig‘i nima bilan belgilanishini aniqlashga urinib kelganlar.

Xulq-atvor shaxsning atrof-muxit bilan o‘zaro ta’sirga kirishish shakllaridan iborat bo‘lib, ular bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi. Shaxsni va uning xulq-atvorini tavsiflab beradigan asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- shaxsning tabiiy xususiyatlari, uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari;
- extiyojlari, sabablari, qiziqishlari tizimi;
- shaxsni boshqarish tizimi, uning «men-obrazi».

Shaxsning tabiiy xususiyatlari – bular unda tug‘ilgan vaqtidan boshlab mavjud bo‘lgan narsalardir. Odatda, ular faollik va ta’sirchanlik singari dinamik tavsiflarning ma’lum darajada ifodalanishi bilan ajralib turadi. Shaxsning faolligi turli xil faoliyatlarga intilishida, o‘zini namoyon qilishida, psixik jarayonlarning, harakat reaksiyasining kechish kuchi va tezligida ifodalanadi, ya’ni shaxsning faoliyatiga xos bo‘lgan xususiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Faollikning eng oxirgi ifodasi, bir tomondan, katta kuch-g‘ayrat sarflash, harakatdagi, faoliyatdagi, nutqdagi shiddatkorlik bo‘lsa, ikkinchi tomondan, psixik faoliyat, nutq, imo-ishoraning zaifligi, passivligida aks etadi. Ta’sirchanlik shaxsning asabi qo‘zg‘aluvchanligining turli darajasida, uning atrofimizdagi olamga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatib beruvchi xis-tuyg‘ularining shiddatkorligida namoyon bo‘ladi. XX asr 20-yillarining boshlarida shvetsariyalik psixiatr K.G.Yung shaxsning psixologik xususiyatlarini «ekstraversiya» va «introversiya» tushunchalari orqali ta’riflab berishni taklif etdi. Ekstraversiya (extra – tashqari) shaxsning

shunday psixologik xususiyatlarini ko'rsatib beradiki, bunda shaxs o'zining qiziqishlarini tashqi omilga, tashqi ob'ektlarga qaratadi, ba'zan ba'zan buni o'zining qiziqishlari xisobiga, shaxsiy ahamiyatini pasaytirish xisobiga amalga oshiradi. Ekstravertlarga xulq-atvorining ta'sirchanligi, imo- ishoralardagi faollik, samimiylik, tashabbus ko'rsatish (ba'zan ortiq darajada), ijtimoiy ko'nikuvchanlik, ichki olamning ochiqligi xos bo'ladi. Introversiya (into - ichki) shaxsning o'z shaxsiy manfaatlariga, ichki olamiga diqqat e'tiborining qayd qilinishi bilan ajralib turadi. Introvertlar o'zlarining manfaatlarini eng muhim deb xisoblab, uni yuqori darajada qadrlaydilar. Ular uchun odamovilik, biqqlik, ijtimoiy passivlik, mustaqil taxlil qilishga moyillik, yetarli darajada murakkab ijtimoiy adabtatsiya (ko'nikuvchanlik) xosdir.

Introversiya – ekstraversiyaning xissiy tavsiflar bilan birga qo'shib kelishi shaxs temperamentini belgilab beradi. Psixik xususiyat tushunchasi – psixodiagnostika muhim tushunchalaridan biri xisoblanadi. Psixik xususiyat – bu nisbatan turg'un ma'lumot xisoblanib, ularni turg'un bo'lmagan vaqt xolatidagi dinamiklardan farqlash lozim. Ko'pgina fikrlardan ma'lum bo'lishicha, shaxsni psixologik xususiyatlarini aniqlashda, uning o'zini borligini isbotlash kerak. Xozirgi kunda bu xususiyatlarni ta'riflash uchun ko'pgina atamalar taklif qilingan (masalan: "bezovtalik", "introversiya", "radikalizm" va b.). O'z-o'zidan bu atamalar insonlarda axloqning qanday darajada ko'rsatilish haqida savol tug'ilishiga olib keladi. Bu savolga olimlar o'zlarining javob variantlarida turli xil nomotetik va 148 ta idiografik yondoshishni bildirganlar.

Nomotetik yondoshish shu sohadagi tekshirishlar uchun bir xil xisoblangan, ayrim umumiy qonunlarni yuzaga chiqaradi, shaxsga qo'llanilganda umumiy xususiyatlarni mavjudligini tasdiqlaydi. Agar tekshiriluvchida masalan bezovtalik yuzaga kelsa, ayrim umumiy shaxs xususiyatlarini qayta ishlanishi

xisoblanadi, bu esa hamma insonlarni uni yuzaga chiqish darajasiga bog‘liq xolda bo‘lishga imkon beradi. Agar bunda ikkita tekshiriluvchida u yoki bu ko‘rsatkichlarda (testda) bir xil ko‘rsatkichga ega bo‘linsa, ularni bir xil psixologik xususiyatlarga ega bo‘lishiga kelishiladi.

Idiografik yondoshuvlar tarafdorlari aloxida shaxsning psixik tashkillashtirishni qaytalanmasligini, “ob’ektiv” (miqdoriy) metodlardan uni o‘rganilishidan xoli xolda ekanligini ta’kidlashadi. Shaxsda ilmiy izlanish olib borish mumkin emas, chunki har bir uning yuzaga kelishi o‘ziga xos umumiydan ajralgan chet el psixologiyasida nomotetik va idiografik qarshi turishlar dialektik bog‘lanishlarni qarshi turishi natijasida kelib chiqadi. Oxirgi yillarda g‘arb psixologlari nomotetik va idiografik yondoshgan xolda shaxsni o‘rganishda ishonchsizlik bo‘lmoqda. Ko‘rsatilishicha psixodiagnostikani tarixida ushbu yondoshishlarni integratsiyasini boshlanishi. (Olport qimmatbaxo buyumlar va shaxsiy xujjatlar o‘rganilishini yo‘lga qo‘ygan). Taxmin qilinishicha nomotetik va idiografik yondoshish integratsiyasi “dialogik model” degan nomlanish psixolog va tekshiriluvchining o‘zaro ta’siridan yuzaga kelgan. Bu modelda psixolog “umumiy daraja eksperti” ko‘rinishida, tekshiriluvchi esa “shaxsiy fikrlar va ahamiyatlar eksperti” ko‘rinishida bo‘ladi. Nomotetik yondoshishni mashxurligi shu bilan xulosa qilinadiki, hamma psixologik xususiyatlar xosil bo‘lishini o‘ziga xosligini isbotlovchi bir necha misollarni xech bir qiyinchiliksiz keltirishimiz mumkin. Introvertirlikni individda aniqlaganimizda bu xususiyat doimiy bo‘lishiga va aniq bir sharoitlarga bog‘liqmasligi haqida tez xulosa qilishimiz kerak emas. Inson ayrim xollarda va munosabatlarda introvert, boshqa xollarda esa ekstravert bo‘lishi mumkin. Bundan kelib chiqishiga ko‘ra individ aniq bir xolatlarda qanday harakat qilganiga asoslangan xolda, uning boshqa xolatlarda qanday harakat qilishini aniq bilish mumkin emas.

Ob'ektiv o'ziga xoslik asosan shaxsni nekognitiv xususiyatlarida namoyon bo'lgan. "Ancha yuqori taqqoslash nekognitiv xolatlararo kelishilganlik va kognitiv vazifalar vaqtidagi turg'unlik shaxsiy xususiyatlarga qaraganda individ reaksiyasini intellektual tomonda yuqori standartlashtirilganligi bilan tushuntiriladi (A.Anastazi).

Bunday shaxs xususiyatlarini turg'un emasligi skeptitsizmni metodlarga va uni o'lchovchilarga nisbatan buziladi. V.Mishel (Mischel) tomonidan shaxsni psixologik xususiyatini turg'unligi ko'pincha o'tkir shaklida doimiylik bo'lmasligiga urg'u berilgan. Uning talqini har tomonlama ma'quldir, bunda qo'rslikka, shaxs xususiyatlarini o'zgartirmasligiga asos yo'qdir, ijtimoiy muxitdan tegishli bo'lmagan xolda olingan. Shu vaqtning o'zida agar insonlarda ularning axloqlari orqali yuzaga keluvchi nisbatan turg'un xususiyatlarni bo'lmasligi tan olinsa, unda individuallik tushunchasi ma'nosiz bo'lib qoladi.

Chet elda 1960 yillarda boshlangan shaxs xususiyatlari turg'unligi puxta o'ylangan tasavvurida izlanuvchilarni (olimlarni) chetda joylashgan – ob'ektiv ijtimoiy va fizik atrofga e'tibor berishlariga majbur qiladi. Psixodiagnostika o'zining ancha uzoq rivojlanish davri axloqning ichki va sub'ektiv determinantini qidirishga qaratilgan.

A.V. Petrovskiyning (1981) yozishicha, ijtimoiy muxit teng xuquqli o'zgarishsiz va amorf bo'ladi.

Muxit taxliliga qaratilgan axloq yuzaga keluvchi tekshirishlar, quyidagi fikrlarni shakllanishiga olib keladi, ya'ni individual–psixologik farqlarni o'lchash katta yutuqlar bilan shaxsni bilishni ijtimoiy xolatlar o'rtasidagi farqni aniqlashga almashtiriladi, o'z navbatida bunda axloq yuzaga keladi. Bu shuni ko'rsatadiki ko'pgina shaxs metodlari nisbatan katta bo'lmagan Validlikni ko'rsatadi (Mischel, 1968 va b.). Xozirgi kunda ob'ektiv farqlanish bilan axloq varitivligini asosiy qismini tushuntirish mumkinligini

biz ishonchli ma'lumot deb xisoblay olmaymiz. Tekshirishlarga qarshi dispersion taxlillar yordamida olingan ma'lumotlarga ko'ra ob'ektiv omillar xissasi axloqda kam ahamiyatga ega va u 10,2 % tashkil qiladi (Xekxaufen). Unday bo'lsa axloqdagi o'zgarishlarga shaxsni o'zaro ta'siri va xolatida deb tushuntiriladi.

V.Mishel qarashlarini evolyutsiyasi qiziqarlidir, u o'zida chet el psixologiyasida shaxsga tizimli yondoshishni asosiy joylarini aks ettirgan: sub'ektiv (shaxsiy) va ob'ektiv (xolatiy) axloq determinantini o'zaro ta'sirini taxlil qilishda individual farqlash va shu bilan bog'liq bo'lgan ob'ektiv omillar giperbolizatsiyasini tutgan o'rnini ko'rsatgan. Xozirgi kunda ham Mishel o'zining oldingi ishlari kabi, axloqga atrof muxit ta'siri haqidagi fikridan qaytmagan. Shaxsni an'anaviy xususiyatlar nazariyasiga asoslangan xolda o'rganish, o'zini vazifani qo'ygan, ya'ni standartlashtirilgan test savollari orqali "bir xil" xolatdagi reaksiyaga nisbatan individual farqni aniqlash insonlar orasidagi ayrim farq qiluvchi jixatlarni osongina ularni bir xil xolatga javob reaksiyalarini o'rganish orqali aniqlash mumkin. Real hayot sharoitida insonlarga ta'sir qiluvchi psixologik "ta'sir"lar shaxs savollarini vazifalari, tajriba yo'riqnomasi va jonsiz buyumlar va insonlar o'zaro munosabatlarida bog'liqligi yo'q" (Mischel).

Shaxsni baxolashda ob'ektiv ma'lumotlar yuqori ahamiyatga ega bo'lmasada, tan olinishi kerak, ya'ni "agar inson axloqi ikkita fazadan chiquvchi ko'pgina o'zaro ta'sirga determinirlangan bo'lsa, individ va uni o'rab oluvchi atrofidagi muxit shulardan biriga o'z diqqatini jamlasa u tezgina o'z xulosasini yaratadi".

Bu bilan qo'shilish mumkin, muallifning aytishicha individual farqlash ob'ektiv ma'lumotni kamligi yoki bo'lmasligini va individga ob'ektiv qo'llanishda kuchsiz ta'sir qilganda ahamiyatli bo'ladi. Kelajakda V.Mishel shaxsni o'lchashda keltirilgan xolatga individual farqlanuvchi, shuning

asosida kasbga bog‘liq xolatlar, kichik va katta chastotada yuzaga chiquvchi, kasblariga mos ravishda axloqiy ko‘rinishni o‘rnatishni kerakligini ko‘rib chiqmoqda. Shunday qilib u yoki bu axloqni sababi shaxs xususiyatlari bilan ham, xolatni o‘ziga xosligi bilan ham emas balki, ularni o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq. Yuqorida aytib o‘tilgan dispers taxlil orqali olingan ma’lumotlarga tasdiqlashiga ko‘ra: shaxs bilan xolatni o‘zaro ta’siri axloqni o‘zgarishini katta qismini tashkil qiladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra o‘zaro ta’siri, bu jarayonni psixologik moyiyatini yashirmaydi. “Shaxs - xolat” o‘zaro ta’siri statistik tushuncha chegarasidan chetga chiqmoqda, o‘zaro ta’sir dispersion taxlilda o‘zaro qo‘shilib ketish deb tushunish kerak (Xekxauzen).

Sobiq sovet psixologiyasida shaxs xususiyatlari va sotsium orasidagi bog‘lanish taxlilida bu xususiyatlarni o‘rganishga imkon beradi. A.V.Petrovskiy ta’kidlashicha individual psixologiya fenomenlari “faoliyat va muloqot orqali yuzaga chiqishi, ya’ni shu guruhdagi rivojlanishlarga xos bu guruhlariga shaxs ham kiradi”. Bu farazni tekshirish shaxs xususiyati va uning qarama-qarshi ko‘rinishi jamoaviy o‘zi aniqlanishi shaxslararo munosabatlar fenomeni guruhiga kiritiladi. quyida eksperimental muolaja o‘tkazilgan bo‘lib, unda mavjud guruhlarda har uchinchi tekshiriluvchida arziyas xolatlarda ishonuvchanlik tendensiya aniqlangan. Bu xolat guruhning rivojlanishiga aslo bog‘liq emas (diffuzdan jamoagacha). Keyin bu tekshiriluvchilar o‘zlarini qanday tutishlari har xil rivojlanish guruhlarida kuzatiladi. Yuqori rivojlangan guruhga kiruvchi (jamoaga) shaxslarda, ahamiyatga ega bo‘lmagan ta’sir natijasida ularning ishonuvchanligi haqida jamoaviy o‘zini aniqlash, topilgan jamoaga qimmatini orqada qolishi xulosa qilinadi, ya’ni ular ishonuvchanlikka berilmaydilar. Bundan xulosa qilinadiki, individual–psixologik sifatga kiruvchi ishonuvchanlik qayta shakllanganlik tarzida namoyon bo‘ladi.

Biz bu xulosani isbotlanmagan deb xisoblaymiz. Ahamiyatga ega bo'lmagan ijtimoiy xolatlarda tekshiriluvchilarni konformlik reaksiyasiga ishonuvchanlik xususiyati xulosa qilishga yetarli emas. Konformlikka eksperiment ma'lum darajada shaxsiyga tegishli bo'lmaganligi bilan harakterlanadi, unda odatda shaxsiy ahamiyatlilikni chetlab o'tadi. Aslida shaxs sifatlarini qayta ishlanishi emas, balki shaxslararo munosabatlardan kelib chiqqan eksperimental fiksatsiyalangan fanomenlardir. Ishonuvchanlik shaxs xususiyati sifatida jamoaviy o'lchanishga aylanishi mumkin emas. Bu insonlarda hayoti davomida ma'lum bir sharoitlarda yuzaga kelgan guruhlardagi o'zaro ta'sirlar natijasida vujudga kelgan ishonuvchanlikda bo'ladi. Ishonuvchanlik shaxs xususiyati sifatida, uning boshqa xususiyatlari qatori, shaxslararo munosabatlar fenomeni ko'rinishida individual shakllari (o'ziga xosligi) aniqlanadi. Shunday qilib individual-psixologik shaxs xususiyatini qayta shakllanishi shaxslararo munosabatlar fenomenida tasdiqlanmagan, tasdiqlanishi ham mumkin emasdir. Xoxlagan shaxs sifatleri uning faollashtirishini ijtimoiy muxit bilan o'zaro ta'siridan yuzaga keladi va u ijtimoiy-psixologik hamda individual-psixologik fenomeni bo'lib xisoblanadi. Shaxs xususiyatlarini uni keltirib chiqaruvchi manbadan ajratish mumkin emas. Shaxs tuzilishiga ko'ra bir vaqtning o'zida individual-psixologik va ijtimoiy-psixologik bo'lashi mumkin. Ijtimoiy muxit - shakllangan shaxs sifati bo'lmasdan, uni axloqini realizatsiyasini keng qirraliligini aniqlashdir. Shaxs xususiyatining nisbatan turg'unligi, psixodiagnostikada mo'ljallagan o'lchash va baxolashni tushunishga kalit bo'ladi. Psixik xususiyat dispozitsiyani qo'shilishida, aniq obrazli harakat qilishga tayyorligini tushunish kerak. Ular ichki tomondan bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlanadi va xolatlarda aloqada yo'l tutishni oldindan aniqlaydi, lekin ichki dispozitsiyalashgan ketma-ketlikda nisbatan turg'un axloqning umumiy tipini topadi. Psixologiyada xususiyatlar diagnostikasidan bosh

tortish, shaxsni tushunish va ta'riflash manbalaridan ayiradi va uni nazariy obetraksiyaga aylantiradi.

Xulosa

Shaxsni eksperimental tekshirishlar nazariy bilish ramkasida qo'llaniladigan bilimlarni yaratadi. Bu orqali nazariy bilishda xususiy konseptual apparat tan olinadi, bilishni o'zi esa eksperimental bo'lmagan shaklda kechishi mumkin. Psixodiagnostikada xususiy konseptual apparatni mos ravishda (kerak bo'lgan metodolik asoslar va taxlillarsiz bo'lishi) rivojlanishi bo'ladi. Biz birinchi navbatda zarur deb psixologik fanda yig'ilgan diagnostik izlanishlarda shaxsni tasavvuriga ega bo'lgan mexanik surilishlarni ajratishimiz kerak bo'ladi. Masalan: shaxs diagnostikasini proektiv texnikasini yaratilishi va rivojlanishini turli xil nazariy xolatlarda olingan ma'lumotlardan qo'llanilishga urinishlardan ajratishimiz kerak. Interpretatsiyaga bog'liq bo'lmagan xolda, proektiv taxlikada stimullashgan materiallar xususiyatlarini o'rganishda muammo tug'iladi, masalan: uni tuzilishidagi darajasi. Bu darajani "fizik" metodlar bilan o'lchash mumkin (ayrim xollarda), masalan, kalometriya bilan. Bu imkoniyatlardan har biri o'zining aniqlik darajasiga egadir: fizik to'plamda – bu uning asbobi shkalasidir. Na u na bu stimullashgan materialni tuzilishini o'rganish yo'li amaliy konstruktga prektiv yondoshishga bog'liq bo'lmaydi.

Nazariy va psixodiagnostik birdan bir borliqda paradoks paydo bo'ladi. Uni mohiyati "nazariy" va "o'lchanuvchi" shaxsni orasidagi gneseologik farqdan iborat bo'ladi. Shuning uchun "nazariy" va "o'lchanuvchi" shaxsni o'rganishga qaratilgan urinishlar oxirgi xisobda kam ma'lumotni va tabiiy harakterga ega bo'lmaydi.

O'lchangan individuallikni uch darajasi – bu psidiagnostik metod, aniq metodikaga diagnostik yondoshishdir. Ular orasida subordinatsiya munosabatlari bor. Har bir yuqori "qavat" shunchalik yuqorini aniqlashtiradi. Predmetni uchlamchi ko'rinishda o'rganish shartlari, ya'ni predmetni uch ipostasda tasavvur qilish (birinchidan, o'zini-o'zicha; ikkinchidan, katta tizim

elementi sifatida; uchinchi, uning kichik masshtabdagi taxlillari o'zaro munosabati). Psixodiagnostik metodga talqin qilganimizda, birinchi, o'zini-o'zi; ikkinchi, psixologik tekshirish metodlarda element tizimi sifatida; uchinchi, psixodiagnostik yondoshish o'zaro munosabatlarida, ya'ni kichik masshtabdagi taxlillardagi ma'lumotlarga ko'ra.

Psixodiagnostik metod taklif qilingan chizma bo'yicha mos kelishi pastda va yuqorida yotuvchi ierarxiya ko'rinishida psixodiagnostik yondoshish darajasiga nisbatan namoyon bo'ladi. Shu orqali psixodiagnostik metodga tizimli tushunish shakllanadi. Aniq o'lchangan psixodiagnostik metodlar diagnostik yondoshishga asos sifatida, diagnostik yondoshish esa psixodiagnostik metodga asos bo'ladi. Yuqori darajada turuvchilarni past darajadagilarga ta'siri bir tomonlama emas, ya'ni qayta ta'sir ham bo'ladi: bu aniq metodikalarni diagnostik yondoshishga, diagnostik yondoshishni psixodiagnostik metodlarga ko'rinishida bo'ladi. Bir butun qilib olganda "tepadan pastga" va "pastdan tepaga" bo'ladi. (V.P.Kuzmin, 1986). Psixodiagnostik metodlar tizimsi ostida uchta diagnostik yondoshish bor, ular o'z elementlari sifatida aniq psixodiagnostik metodlarni o'z ichiga oladi. Taklif qilingan psixodiagnostik metod tizimsi bir vaqtda klassifikatsiyalashtiruvchi vazifani ham bajaradi.

O'lchangan individuallik nazariyasi global psixologik nazariya orasidan joy oladi. Nazariy modellar (psixologik taxlil, faoliyat nazariyasi va b.) va "mikronazariya" bilan ishlovchilar izlanishlar vazifasiga aniqliklar kiritadilar. Shu o'lchangan individuallik nazariyasi psixologik bilish tizimsida aniq nazariy boshliqni to'ldiradi. Shuni xisobiga har xil darajadagi orasida o'zaro ta'sir yuzaga keladi. Har qaysi nazariyani shakllanish va rivojlanishida ham yuqori, ham pastda joylashgan nazariyalarda izlar yig'iladi.

O'lgangan individuallik nazariyasi o'rta darajadagi nazariyalarga kiradi, u nazariya orqali emperik material va umumiy nazariya o'rtasida o'ziga xos ko'prik xosil bo'lishi aniqlanadi. Bu nazariya boshqa psixologik nazariyalarda qo'llanilishida to'g'ri kelmaydigan, o'zini xususiy qo'llanilishiga ega, nazariy modellarni va konstiturillashgan nazariyalarni yuqori va past (o'rta) darajadagi nazariyalarga kiritish mumkin. Nazariy modellar asoslangan bilimlarga asoslanadi, unda o'lgangan individuallik nazariyasi psixodiagnostik izlanishlar ko'zda tutilgan natijalari xisobiga to'g'ridan – to'g'ri “o'sadi”.

Amerikalik jamiyatshunoslar R.Merton (Merton) T.Partson tomonidan “hammasini o'ziga olgan” nazariya yaratilgan. Bu o'rta darajadagi nazariya kichik farazlar bilan ishlovchilar va katta nazariy spekulyatsiyalar orasida muhim ahamiyatga ega. Bu nazariyalar tuzilishidagi asosiy maqsad – emperik va nazariy darajadagi izlanishlar orasida mustaxkam bog'lanish xosil qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. AMINOV N.A., MOLOKANOV M.V. SOTSIALNO-PSIXOLOGICHESKIE PREDPOSYLKI SPETSIALNIX SPOSOBNOSTEY SHKOLNIX PSIXOLOGOV//VP, 1992, № 1-2. S. 74-84.
2. BODALEV A.A., LOMOV B.F., LUCHKOV V.V. PSIXOLOGICHESKUYU NAUKU NA SLUJBU PRAKTIKE. VP, 1979, № 4. S. 17-23.
3. Bondarenko A.F. Psixologicheskaya pomoshch: teoriya i praktika. - M.: Izd-vo "Instituta psixoterapii", 2000. - 368 s.
4. Bratchenko S.L. Ekzistentsialnaya psixologiya glubinnogo obshcheniya: uroki Dzeymsa Byudjental. M.: Smysl, 2001.
5. Burmenskaya G.V., Karabanova O.A., Liders A.G. Vozrastno-psixologicheskoe konsultirovanie. Problemy psixicheskogo razvitiya detey. M.: Izd-vo MGU, 1990.
6. Vasilyuk F.E. Ot psixologicheskoy praktiki k psixotexnicheskoy teorii. Moskovskiy Psixoterapevticheskiy Jurnal, 1992, № 1. S.15-32.
7. Viner Dj., Mayzen R., Dakxem Dj. Superviziya supervizora: praktika v poiske teorii. M.: Kogito-TSentr, 2006.
8. Meyer V., CHesser E. Metody povedencheskoy terapii. SPb, 2001
9. **Nelsen-Djouns R. Teoriya i praktika konsultirovaniya. SPb.: Piter, 2000.**
10. NEMOV R.S. PSIXOLOGIYA. V 3-X KNIGAX/ PSIXOLOGICHESKAYA SLUJBA V OBRAZOVANII. KN. 2. S. 506-526.
11. Ovcharova R. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya. M., 2003.

12. Ovcharova R.V. Teknologii prakticheskogo psixologa obrazovaniya. M., 2000.
13. Prakticheskaya psixologiya obrazovaniya/Pod red. I. V. Dubrovinoy. M., 1998.
14. Rogov Ye.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovanii. Uchebnoe posobie. M.: VLADOS, 1996.